

## **Qo‘qon qog‘oz ishlab chiqarish tarixi va turizmdagi ahamiyati**

**Begmatov Xurshid Isanaliyevich**

Qo‘qon dablat universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qo‘qon qog‘oz ishlab chiqarish san‘atining shakllanishi, rivojlanishi va uning turizm sohasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari hamda sharqshunos olimlar asarlari asos qilib olindi. XVIII–XIX asrlarda Samarqand qog‘ozgarligi tanazzulga yuz tutgan bir davrda Qo‘qon ustalarining bu hunarni qayta rivojlantirishi, uning sifat xususiyatlari va mintaqaviy savdodagi o‘rni yoritiladi. Qo‘qon qog‘ozi Turkiston, Qashqar va Afg‘oniston bozorlarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, ko‘plab tarixiy, ilmiy va adabiy asarlar aynan shu qog‘ozga ko‘chirilgan. Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni tiklash jarayonida bu an‘ananing turizm salohiyatini oshirishdagi o‘rni alohida baholandi. Tadqiqot natijalari Qo‘qon qog‘ozi zamonaviy turizmning jozibador segmentlaridan biri sifatida qayta tiklanish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar.** Qo‘qon qog‘ozi, qog‘ozgarlik tarixi, hunarmandchilik, Samarqand qog‘ozi, turizm, tarixiy meros, madaniy an‘ana, sharq qo‘lyozmalari, iqtisodiy tahlil, Qo‘qon hunarmandchiligi

## **История кокандского бумажного производства и его значение в туризме**

**Бегматов Хуршид Исаналиевич**

Преподаватель Кокандского государственного университета

**Аннотация.** В данной статье научно анализируется формирование и развитие искусства кокандского бумажного производства и его значение в сфере туризма. Исследование основано на исторических источниках, рукописях, архивных документах и трудах востоковедов. Подчеркивается возрождение этого ремесла кокандскими мастерами в период упадка самаркандского бумажного производства в XVIII–XIX веках, его качественные характеристики и роль в региональной торговле. Кокандская бумага широко использовалась на рынках Туркестана, Кашгара и Афганистана, и на ней копировались многие исторические, научные и литературные произведения. Особо отмечается роль этой традиции в повышении туристического потенциала в период восстановления национальных ремесел в годы

независимости. Результаты исследования показывают, что кокандская бумага имеет потенциал для возрождения в качестве одного из привлекательных сегментов современного туризма.

**Ключевые слова:** кокандская бумага, история бумажного производства, ремесло, самаркандская бумага, туризм, историческое наследие, культурные традиции, восточные рукописи, экономический анализ, кокандское ремесло

## **The history of Kokand papermaking and its significance in tourism**

**Begmatov Khurshid Isanaliyevich**

Teacher at Kokand State University

**Annotation.** This article scientifically analyzes the formation, development of the art of Kokand papermaking and its significance in the field of tourism. The research was based on historical sources, manuscripts, archival documents, and works of oriental scholars. The redevelopment of this craft by Kokand masters during the decline of Samarkand papermaking in the 18th-19th centuries, its quality characteristics, and its role in regional trade are highlighted. Kokand paper was widely used in the markets of Turkestan, Kashgar, and Afghanistan, and many historical, scientific, and literary works were copied on this paper. The role of this tradition in increasing the tourism potential during the restoration of national crafts during the years of independence was especially appreciated. The results of the study show that Kokand paper has the potential to be revived as one of the attractive segments of modern tourism.

**Keywords:** Kokand paper, history of papermaking, handicraft, Samarkand paper, tourism, historical heritage, cultural tradition, oriental manuscripts, economic analysis, Kokand handicraft

**Kirish.** O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy tarixni qayta o‘rganish, madaniy merosni tiklash va uni ilmiy hamda amaliy jihatdan targ‘ib etishga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, turizm sohasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangach, tarixiy hunarmandchilik turlari, milliy an‘analari va qo‘lyozmachilik madaniyati yangi qiymat kasb etib boshladi. Turizm sohasining jadal rivoji mahalliy mahsulotlar, qadimiy texnologiyalar va tarixiy tajribalarni zamonaviy talqinda qayta jonlantirishga sabab bo‘ldi. Shunday muhim meros turlaridan biri – qog‘oz ishlab

chiqarish san'ati, xususan Qo'qon qog'ozi, o'zining boy an'analari, nafis texnikasi va mintaqaning ilmiy-madaniy hayotida tutgan o'rni bilan ajralib turadi.

Sharq qo'lyozmachiligi tarixida qog'oz nafaqat yozuv vositasi, balki ilm, adabiyot, davlat boshqaruvi va diplomatik aloqalarning asosiy tayanchi sifatida xizmat qilgan. O'rta Osiyoda bu jarayonlar asosan Samarqand qog'ozi orqali rivojlangan bo'lsa-da, XVIII asr oxirlariga kelib siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik va urushlar tufayli ushbu maktab tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday murakkab davrda Qo'qon xonligi hududida qog'oz ishlab chiqarish an'analari yangi markazi shakllandi. Qo'qon ustalari Samarqand tajribasini davom ettiribgina qolmay, uni yanada takomillashtirib, o'z maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Qo'qon qog'ozi sifat, chidamlilik, shaffoflik va nafislik kabi ko'rsatkichlari bilan tez orada butun Turkiston, Qashqar, Badaxshon, Afg'oniston va hatto sharqiy hududlardagi savdo markazlarida keng qo'llanildi. XIX asrning ko'plab tarixiy va adabiy qo'lyozmalari, rasmiy hujjatlar, davlat yozishmalari aynan Qo'qon qog'oziga bitilgani ushbu hunarning mintaqaviy miqyosdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu jarayon o'z navbatida Qo'qon shahrining iqtisodiy rivojiga, hunarmandchilik markazi sifatida shakllanishiga va savdo aloqalarining kengayishiga xizmat qildi.

Hozirgi kunda turizmning yangi yo'nalishlaridan biri – sanoat va madaniy meros turizmi jadal rivojlanmoqda. Qog'oz ishlab chiqarish jarayonining amaliy ko'rinishda namoyish qilinishi, sayyohlar uchun mahorat darslarining tashkil etilishi, milliy mahsulotning tarixini o'rganish imkoniyati Qo'qon qog'ozgarligini turizm uchun yuqori salohiyatga ega ob'ektga aylantiradi. Samarqand qog'ozi mustaqillik yillarida muvaffaqiyatli tiklangan bo'lsa, Qo'qon qog'ozgarligi ham tiklanishning muhim bosqichida turibdi. Bu esa ushbu sohaga ilmiy yondashuvni kuchaytirish, tarixiy manbalarni qayta o'rganish va hunarmandlikning zamonaviy turizm bilan integratsiyasini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Shu sababli, mazkur tadqiqot Qo'qon qog'ozi tarixining shakllanish jarayonini, uning iqtisodiy, madaniy va turistik ahamiyatini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, milliy hunarmandchilik merosini saqlash hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi konseptual yondashuvlarni taklif etadi.

**Metodlar.** Ushbu tadqiqotda tarixiy manbalar, qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari va sharqshunos olimlar (A.A. Semyonov, T. Zufarov, G.V. Grigorev) asarlari tahlil qilindi. Shuningdek, Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi ma'lumotlar hamda sayyohlarning kuzatuvlari tadqiqot ob'ekti sifatida foydalanildi. Solishtirma tahlil usuli orqali Samarqand va Qo'qon qog'oz ishlab chiqarish an'analari o'rganildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. XVIII–XIX asrlarda Samarqand qog‘oz ishlab chiqarishi turli siyosiy inqiroz va urushlar tufayli to‘xtab, uning o‘rnini Qo‘qon qog‘ozi egalladi.

2. Qo‘qon qog‘ozi sifati bilan ajralib turib, butun Turkiston, Qashqar va shimoliy Afg‘onistonga tarqaldi.

3. XIX asrdagi ko‘pgina tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar aynan Qo‘qon qog‘oziga yozilgan. U turli rasmiy hujjatlar va maktublarda ham keng qo‘llanilgan.

4. Qo‘qon qog‘ozi nafisligi, chidamliligi va shaffofligi bilan mashhur bo‘lib, Xitoy qog‘ozi bilan raqobat qila olgan.

5. Qog‘ozning «abribahor», «abri shom» kabi turlari ham ishlab chiqarilgan. Olim T. Zufarov bu turlarni tadqiq etib, ularning tayyorlanish usullarini yoritib bergan.

6. Qog‘ozgarlik mahalliy iqtisodiyot va madaniyatda muhim o‘rin tutib, hatto Buxoro amirligida qog‘oz pullar muomalasida ham ishlatilgan.

**Muhokama** .Qo‘qon qog‘ozgarligining XVIII–XIX asrlardagi rivoji mintaqaning iqtisodiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, arxiv hujjatlari va tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar uning o‘sha davrda keng ko‘lamda ishlab chiqarilganini tasdiqlaydi. Masalan, XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xonligi bozorlarida yiliga o‘rtacha 25–30 ming dona qog‘oz mahsuloti ichki va tashqi savdo uchun tayyorlangani qayd etiladi. Bu ko‘rsatkich Samarqand qog‘ozi tanazzulga yuz tutgan davr bilan qiyoslanganda, Qo‘qon qog‘ozgarligining yangi markaz sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlillar natijalari qo‘qon qog‘ozining quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lganini ko‘rsatdi: Chidamlilik koeffitsienti Samarqand qog‘oziga nisbatan o‘rtacha 15–20% yuqori bo‘lgan; Shaffoflik darajasi Sharq qo‘lyozmalari ekspertlari tomonidan yuqori baholanib, Xitoy qog‘ozi bilan raqobat qila olgan;

Eksport hududlari soni Samarqand qog‘ozida 3–4 ta bo‘lsa, Qo‘qon qog‘ozi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 6–7 ta mintaqaga yetgan (Turkiston, Qashqar, Badaxshon, Kobul, Shimoliy Afg‘oniston va boshqalar).

Analitik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon qog‘ozi bozor munosabatlari shakllanayotgan davrda nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirgan, balki mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonida muhim rol o‘ynagan. XIX asr berilganlari bo‘yicha ilmiy va adabiy qo‘lyozmalarning qariyb 60–70% Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgani, bu mahsulotning yozuv uchun mosligi va qadr-qimmati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan dala tadqiqotlari va turizm monitoringi natijalari shuni tasdiqlaydiki, tarixiy hunarmandchilik ob’ektlari sayyohlar e’tiborini sezilarli jalb etadi. Masalan, Samarqanddagi qadimiy qog‘oz

ishlab chiqarish majmuasiga yiliga o'rtacha 50–70 ming sayyoh tashrif buyurayotgani qayd etilgan. Qiyosiy yondashuv asosida olganda, agar Qo'qonda ham shunday ustaxona va muzey faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratilsa, shaharning turistik oqimi 15–20% ga oshishi prognoz qilinadi.

Analitik yondashuvdan kelib chiqib, Qo'qon qog'ozi turizm uchun quyidagi uch asosiy omil bo'yicha yuqori salohiyatga ega:

1. Tarixiy meros qiymati – hunarmandchilikning davomiyligi va qo'lyozmachilik bilan bog'liqligi;

2. Mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari – qo'l mehnati, tabiiy materiallar, ekologik tozalik;

3. Turizmda brendlash imkoniyati – amaliy jarayonni namoyish qilish, souvenir mahsulotlar ishlab chiqarish, tajriba turizmi.

Demak, statistik va qiyosiy tahlillar Qo'qon qog'ozgarligining tarixiy ildizlari kuchli bo'lishi bilan birga, zamonaviy turizmning iqtisodiy ehtiyojlarini qondira oladigan istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Bu esa sohaga investitsiya, ilmiy tadqiqotlar va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

**Xulosa** Qog'oz ishlab chiqarish san'ati, ayniqsa Qo'qon qog'ozgarligi, O'rta Osiyo madaniy va iqtisodiy hayotida o'chmas iz qoldirgan. XVIII–XIX asrlarda Samarqand qog'ozi tanazzulga yuz tutgan bir paytda, Qo'qon ustalari bu hunarni yangi bosqichga ko'tardilar. Ular nafaqat mahalliy bozor ehtiyojlarini qondirdilar, balki butun Turkiston, Afg'oniston va Qashqarga qog'oz yetkazib, mintaqalararo savdoda muhim o'rin egalladilar. Qo'qon qog'ozi sifat jihatidan ajralib turgani bois, turli ilmiy, adabiy va tarixiy asarlar hamda davlat hujjatlari aynan shu qog'ozga yozildi. Uning chidamliligi, nafisligi va shaffofligi tufayli Yevropa va Rossiya ma'muriy idoralarida ham katta qiziqish uyg'otgan. Shu jihatdan, Qo'qon qog'ozi milliy mahsulot sifatida xalqaro nufuzga ega bo'lganini ta'kidlash mumkin.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni tiklash va turizmni rivojlantirish siyosati doirasida Samarqand qog'ozi allaqachon turizm ob'ekti sifatida qayta hayotga qaytdi. Qo'qon qog'ozgarligi esa hozirda tiklanish arafasida turibdi. Agar bu sohada tizimli tadqiqotlar olib borilsa, amaliy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilsa va turizm infratuzilmasiga integratsiya qilinsa, Qo'qon qog'oz san'ati shahar iqtisodiyotida yangi drayverga aylanishi mumkin.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borish maqsadga muvofiq:

Qo'qon qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasini to'liq qayta tiklash; Turistik yo'nalish sifatida qog'oz ustaxonalarini amaliy namoyish ob'ektiga aylantirish; Qo'qon qog'ozining brendini shakllantirish va mahalliy hamda xalqaro bozorlarda targ'ib qilish; Xalqaro ilmiy hamkorlik asosida Qo'qon qog'ozgarligi merosini chuqurroq o'rganish. Shunday qilib, Qo'qon qog'ozi nafaqat tarixiy

hunarmandchilik an'anasi, balki milliy iqtisodiyot va madaniy merosning turizm orqali zamonaviy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni taqdim etuvchi strategik resurs sifatida baholanishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. V.Potinin. «Pokazaniya sibirskogo kazaka Maksimova, Kokandskie vladeniya». SPB. 1860, 22 str.
2. Nabijon Sobir. «Qo‘qon qog‘ozi» «Xalq so‘zi», 1991 y, 11 may.
3. N.Xabibullaev. «O‘rta Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish tarixi», T. 1992 y, 14 b.
4. N.Abdulaxatov, B.Hoshimov. «Mo‘yi Muborak». F. 2000 y, 18 b.
5. Nabijon Sobir. O‘sha joyda.
6. «Vestnik istorii mirovoy kultury» M. BSE, 1957.
7. N.P.Lixachev. «Bumaga i bumajnye melnitsy v Moskovskom gosudarstve» SPB. 1892.
8. A.YU.Kaziev. «Xudojestvenno-texnicheskie materialy srednevekovoy rukopisi» Baku. 1968 y. 34 b.
9. A.Murodov. «O‘rta Osiyo hattotlik san’ati tarixidan». T. 1971 y, 122-123 b.
10. O‘sha joyda. 138-139 b.